

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA**

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA MAKON  
TUSHUNCHASIGA OID DASTLABKI TUSHUNCHALARINI  
SHAKLLANTIRISH**

Azamova Nargiza Ulug'bekovna

Osiyo Xalqaro Universiteti 2-magistranti

**Ilmiy rahbar: Ro'ziyeva Mohichehra Yokubovna**

Filologiya fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Boshlang'ich ta'lism nazariyasi va metodikasi kafedrasi dotsenti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida makon tushunchasiga oid dastlabki tushunchalarini tushuntirish yo'llari, ularning tahlili yoritib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** badiiy asar, obraz, makon tushunchasi, adabiy makon.

**Abstract:** In this article, the ways of explaining the initial concepts of the concept of space in primary school students, their analysis is highlighted.

**Key words:** artistic work, image, concept of space, literary space.

**Аннотация:** В данной статье освещены способы объяснения исходных понятий пространства у младших школьников, их анализ.

**Ключевые слова:** художественное произведение, образ, концепция пространства, литературное пространство.

Boshlang'ich ta'lism tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish va anglash ko'nikmasini shakllantirish hamda rivojlanirish masalalari bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Dunyo ta'lism tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilariga, ularning fanlardan yaxshi o'zlashtirishlariga alohida e'tibor beriladi. Xususan, mamlakatimizda ham bu borada yaxshi o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Maktab o'quvchilarining bilimini baholash, ta'lism sifatini oshirish maqsadida hukumatimiz tomonidan xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish belgilab qo'yildi. Respublikamiz ta'lism muassasalarida intellektual rivojlangan shaxsnii kamol toptirishning moddiy-texnik bazasi yaratildi, huquqiy-me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi.

## **FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA**

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" birinchi ustuvor vazifalar sifatida belgilab berildi. Bu esa boshlang'ich sinflar adabiy ta'limida yuksak samaradorlikka erishishga zamin yaratadi.

Bunda o'qituvchilarning vazifasi boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'rganiladigan asarlarni bir-biridan farqlash, yozuvchining hayotiy voqealarni qayerda, qachon bayon qilganligi, qanday vositalar yordamida aks ettirgani, qanday adabiy qahramonlar yaratganini tushunish, asar qahramonlarining xatti-harakatiga o'z munosabatini bildirish, ularni baholay olish va tegishli xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishi lozim.

Bu ko'nikmalarni shakllantirish uchun boshlang'ich sinf o'qish darsliklaridagi makon tushunchasi ham muhim unsurlardan biri hisoblanadi. Asar syujetidagi voqealar zanjirining halqalarini tashkil etuvchi voqeа-hodisalar muayyan bir makonda yuz beradi. "Makon" tushunchasi adabiy asar voqeа-hodisalari sodir bo'ladigan aniq makon, joy (shahar, qishloq, tog', qo'rg'on kabi); Adabiy asarning makoni hayotda mavjud geografik hududlar (masalan, Qarshi, Toshkent, Nukus, Qo'qon, Buxoro va h.z.) bo'lishi bilan birga yozuvchining o'zi o'ylab topgan to'qima joy nomlari ham bo'lishi mumkin. Masalan, boshlang'ich sinf o'qish darsligidagi Abu Ali Ibn Sino rivoyatidagi Buxoro muzofoti ham aynan hayotda mavjud geografik hudud hisoblanadi, «Do'stlikda gap ko'p ekan» o'zbek xalq ertagida asar voqeа-hodisalari bir qishloqda, «Tovuq bilan tulki» masalida esa voqealar o'rmonda sodir bo'lgan.[2.30] Makonga doir tushunchalarni sindirish orqali o'quvchilarda Vatan tuyg'usi, vatanga e'tiqod, vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvat his-tuyg'ularini shakllantirish, ularni o'z xalqi va vatanining sodiq farzandlari bo'lib ulg'ayishlarida muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, yangi boshlang'ich sinf darsligimizdagi ko'pgina asarlar realistik asarlar hisoblanadi. Ya'niki bunda asar voqeа-hodisalari aniq makonda sodir bo'ladi. Misol tariqasida, 2-sinf o'qish darsligidagi «Ona Vatan bag'rida baxtiyor avlod» bo'limida O'zbekistonning qadimiy shaharlari, viloyatlari haqida qiziqarli ma'lumotlar berilgan, mashq daftarida esa bu shaharlар haqida turli xil topshiriqlar berilgan, qadimiy, mashhur viloyatlarning su'ratlari keltirib o'tilgan.

## **FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA**

Badiiy asar ustida ishslash murakkab jarayon bo'lib o'qituvchi o'qish darslarining ta'lif-tarbiyaviy vazifalari badiiy asarning o'ziga xos xususiyatlari va o'quvchilarning tayyorgarligini hisobga olishni taqozo qiladi. Badiiy asarda barcha komponentlar o'zaro bog'langan bo'ladi. Asarda obrazlar rivojlanib boradi. Voqealar rivojlanib borgan sari qahramonlarning yangi-yangi tomonlari ochila boradi. Bu xususiyatlari asar ustida ishslashda uni yaxlit o'qishni, idrok etishni, ya'ni sintezni talab qiladi. Asar boshidan oxirigacha o'qilgandan so'ng analiz qilinadi, so'ng yana yuqori sifatli sintezga o'tiladi. Asarni o'qishga kirishishdan oldin o'quvchilarni badiiy asarni o'qishga tayyorlash lozim bo'ladi. Demak, tayyorgarlik davri – sintez-analiz-sintez jarayonini beradi. O'quvchilar asar mazmunini to'g'ri idrok etishlari uchun hayot haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lishlari zarur. Buning uchun tayyorgarlik ishlari o'tkaziladi.

**Demak, boshlang'ich sinflarda makon haqidagi tushunchalarni tushuntirishni tayyorgarlik ishlaridan boshlash kerak.** Tayyorgarlik ishlarining ta'limiy shakllari xilma-xil bo'lib, o'qituvchi asar mazmuni va sharoitga qarab ish turini tanlaydi. Tayyorgarlik davrida nimalar haqida ma'lumot berish maqsad qilingan bo'lsa, avvalo, o'quvchilarning o'zlaridan ular haqida bilganlari so'rab aniqlanadi.

Masalan, “O'zbek milliy hunarmandchiligi” asarini o'qishga tayyorgarlikda o'quvchilarning dastlabki bilimlari quyidagicha aniqlanadi:

**O'qituvchi: – Bugun biz o'zbek milliy hunarmandchiligiga sayohat qilamiz. Sayohatimiz yurtimizning turli xil shaharlarida bo'ladi. Sayohatchilar ikki guruhga bo'linadi. Buning uchun har bir guruh o'ziga berilgan savol-topshiriqlarni bajarib, shohsupaga ko'tarilishi zarur.**

**1-guruh uchun savol-topshiriqlar:**

**1. Yurtimizda o'z hunari bilan mashhur bo'lgan hunarmandlardan kimlarni bilasiz?**

**2. Sizning shahringiz qaysi hunar bilan mashhur?**

**3. Toshkent, Rishton, Qarshi shaharlari o'zlarining qaysi hunarlari bilan mashhur?**

**2-guruh uchun ham shu tarzdagi savol-topshiriqlar beriladi yoki har ikkala guruh uchun shu savol-topshiriqlar berilib, “Kim oldin shohsupaga etib boradi?” sharti qo'yiladi. Xattaxtaga tarixiy joylar tasvirlangan rasmlar, hunarmandchilik ishlaridan namunalar ilib qo'yiladi.**

**O'quvchilarga makon tushunchasini shakllantirishning yana bir usuli – ekskursiyalardir. Bu ish turidan tabiat tasviriga bag'ishlangan yoki ishlab**

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA**

chiqarish, qurilish, shahar, qishloq hayotiga, kasbga doir mavzular va tarixiy asarlar o‘rganilganda foydalanish mumkin. Chunonchi, 3-sinfda “Orolim”, 2-sinfda “O’zbek milliy hunarmandchiligi” kabi mavzularni o‘rganishdan oldin ekskursiya qilish maqsadga muvofiq. Ekskursiya o‘quvchilarning asarda ifoda etilgan hodisalarini aniq va ongli o‘zlashtirishlariga yordam beradi, bilimlarini chuqurlashtiradi, tarixiy joylar, shaharlar va ular haqida aniq tushunchalarni shakllantiradi. Ekskursiya bolalarda ona Vatanga mehr uyg‘otadi, uni sevish va asrash hissini tarbiyalaydi. Ishlab chiqarish korxonalariga, muzey va boshqa joylarga ekskursiyalar esa tarixiy voqealarning to‘g‘ri idrok etishlarini ta’minlaydi, kattalar mehnati bilan tanishtiradi, o‘quvchida mehnatga muhabbat uyg‘otadi, kasbga yo‘naltiradi.

Film namoyish qilish. Tarixiy materiallarni, joylar, asar muallifi hayotini o‘rganishdan oldin film namoyish qilinsa, o‘quvchilarning asarni idrok qilishlari faollashadi. Kinofilm o‘quvchilarni asarni o‘qishga tayyorlash davrida foydalaniladi. Masalan, 2-sinf o‘qish darsligida “Abu Ali Ibn Sino” rivoyatida voqealar Buxoro muzofotida bo‘lib o’tadi, bunda avvalo, o‘quvchilarga Buxoro viloyati haqidagi qiziqarli faktlar aytildi va bor e’tibori jalb qilinadi. Shundan so’ng, axborot texnologiyalar vositasi orqali shu joyni visual tarzda ko’rsatib, yanada ko’proq ma’lumot berib o’tish lozim. Shunda o‘quvchilar asar qayerda sodir bo’layotganini, qanday shahar yoki tuman ekanligini his qilishadi. Bu nafaqat asarni yaxshi tushunishga yordam beradi, balki Vatanga muhabbat, uni sevish, ardoqlash, o’z Vatani bilan faxrlanish, o’z yurti tarixiga qiziqish orttiradi. [2.30] **Shuningdek, o‘quvchilarning tasavvur qilishlariga, tushunchalarini oydinlashtirishga, ongli o‘qish va hissiy idrok etishlariga yordam beradi.** O‘quvchilarning film namoyishida tug‘ilgan ayrim savollariga ularning o‘zlari yangi o‘qiydigan asarlardan javob topadilar. Tayyorgarlik ishlarini bunday uyushtirish o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘quvchining zamon bilan hamnafas faollashuvi, ruhiy olamining murakkablashuvi metodika ilmi oldiga badiiy asar ustida ishslash yo‘llarini boyitish va kengaytirish talabini qo‘yyapti. Har bir o‘qituvchi matn ustida ishslashda ana shu talablardan kelib chiqqan holda, ko‘proq izlanishi va o‘quvchini olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olishi uchun kompetensiya ega shaxs sifatida shakllantirishi lozim.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Ro'ziyeva M.Y. Bolalar folklori. O'quv qo'llanma. –B.: “Durdon”, 2022. –241b.
2. O'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lif maktablarining 4-sinfi uchun darsliklar. U.Aydarova, N. Azizova, M.Tirova- Toshkent, “Novda Edutainment”, 2023. – 80b
3. O'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lif maktablarining 2-sinfi uchun darsliklar. U.B.Aydarova - Toshkent, “Novda Edutainment”, 2023. – 80b
4. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)